

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



1-keys. “10 yildan keyingi maktabim”



Vaziyat:

Sardor dars davomida 10 yildan keyin o‘zi o‘qigan maktabga tashrif buyurishini, u yerda darslar interaktiv shaklda, sun‘iy intellekt hamda raqamli texnologiyalar yordamida o‘tilishini tasavvur qildi.




Savollar:

- 1 10 yildan keyingi maktab darslari va imkoniyatlarini qanday tasavvur qilasiz?
- 2 Zamonaviy darslar va texnologiyalar o‘quvchiga qanday qulaylik beradi?
- 3 Kelajak maktabida o‘quvchining mas‘uliyati qanday bo‘lishi kerak?

Qiziqarli topshiriq:

“10 yildan keyingi maktab” mavzusida kelajakdagi darslar va texnologiyalarni tasvirlab 5–6 ta gapdan iborat qisqa matn yozing.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



2-keys. “Mehnatsevarlik — muvaffaqiyat garovi”



Vaziyat:

Bobur har kuni darslaridan tashqari ingliz tili va kompyuter savodxonligini o‘rganadi. Sinfdoshi unga: “Hozirdan buncha ko‘p mehnatsiz?” deganda, Bobur kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lish uchun mehnatsevarlik zarurligini aytdi.



Savollar:

- 1 Mehnatsevarlik va uzluksiz o‘rganish insonga kelajakda nima beradi?
- 2 Chet tillarini va texnologiyalarni bilish Vatanimizga qanday foyda keltirishi mumkin?
- 3 Siz o‘zingizni mehnatsevar deb hisoblaysizmi? Kuningizni qanday rejalashtirasiz?

Qiziqarli topshiriq:

Kelajakda muvaffaqiyatli inson bo‘lish uchun bugun bajarishingiz kerak bo‘lgan 3 ta kunlik odatingizni yozing.

